

Yumshoq, yengillashtirilgan vosk – silliq dekorativ qoplamalarni himoya qilish uchun mo'ljallangan. Oson jilolanadi. Suvni itaruvchi xususiyatga ega. Yaltiroqlik darajasi ipakdek yumshoqdan yaltiroq (gloss) holatigacha o'zgaradi.

SIRTNİ TAYYORLASH

Yuza quruq, toza va silliq ekanligiga, hamda barcha oldingi dekorativ qatlamlar yaxshi quriganiga ishonch hosil qiling. Himoya qatlamini surtishdan oldin dekorativ qoplamanı kamida uch kun davomida to'liq qurib, barqarorlashishi uchun qoldirish tavsiya etiladi.

SURTISH

Qatlam yupqa va bir tekis bo'lishi kerak.

Vosk qanchalik ko'p ishqalanib va jilolansa, qoplama shunchalik yorqin yaltiroqlikka ega bo'ladi.

! Qo'llash harorati $+10^{\circ}\text{C}$ dan past bo'lmasligi kerak. Asboblari Uayt-Spirit bilan tozalanadi.

1-VARIANT

Yengil qo'llash uchun voskni suv hammomida eritish kerak. Toza matoni botirib, ortiqchasini siqib, yuzaga surtib ishqalash, so'ngra toza yumshoq mato yoki qo'lqop bilan jilolash kerak. Qotgandan so'ng silliqlash mashinasi yoki polirovka gubkalari bilan qo'shimcha jilolash mumkin.

2-VARIANT

Voskni Uayt-Spirit bilan suyultirib, past aylanish tezligidagi mikser bilan aralashtirish kerak. Suyultirish nisbati 20 dan 50 foizgacha bo'lib, voskning quyugligiga bog'liq.